



BOSHLANG‘ICH YAPON TILI DARSLARIDA AI-CHATBOTLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA AMALIY SAMARADORLIGI

Lutfilloyeva Faxriniso Maxmudovna

Samarqand davlat chet tillar instituti Yapon filologiyasi kafedrası

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, v.b.professor

E-mail: lutfilloyeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada universitetning boshlang‘ich darajadagi yapon tili darslarida AI-chatbotlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va amaliy samaradorligi ilmiy-metodik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda generativ sun‘iy intellekt texnologiyalari ta‘lim, xususan, til o‘qitish jarayoniga faol kirib kelmoqda. Xorijiy til sifatida yapon tilini o‘qitishdagi amaliy tajribalar hali yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli mazkur maqolada AI-chatbotlarning boshlang‘ich yapon tili ta‘limidagi o‘rni, ularning talabalar mustaqil ta‘limiga ta‘siri, til va madaniyatni o‘zlashtirishdagi yordamchi funksiyalari tahlil qilindi. Natijalar chatbotlar lug‘at o‘rganish, yapon tili grammatikasini tushunish, hiragana va katakana yozuvlarini mustahkamlashda foydali vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Maqolada AI-chatbotlarni yapon tili o‘qitish jarayoniga maqsadli, nazoratli va akademik halollik tamoyillariga mos holda integratsiya qilish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: yapon tili, AI-chatbot, generativ sun‘iy intellekt, boshlang‘ich dars, mustaqil ta‘lim, lug‘at, grammatika, interaktiv ta‘lim, akademik halollik.

Аннотация. В данной статье с научно-методической точки зрения анализируются дидактические возможности и практическая эффективность использования AI-чатботов на занятиях японского языка начального уровня в университете. В последние годы технологии генеративного искусственного интеллекта активно внедряются в сферу образования, в частности в процесс обучения языкам. Несмотря на то что количество исследований, посвящённых применению ChatGPT и других AI-инструментов в преподавании японского языка как иностранного пока ещё недостаточно сформирован. В связи с этим в статье рассматриваются роль AI-чатботов в обучении японскому языку на начальном этапе, их влияние на самостоятельную учебную деятельность студентов, а также вспомогательные функции в освоении языка. Результаты показывают, что чатботы могут быть полезным инструментом при изучении лексики, понимании грамматики японского языка, закреплении письменностей



хирогана и катаканы. В статье обосновывается необходимость целенаправленной, контролируемой и соответствующей принципам академической честности интеграции AI-чатботов в процесс преподавания японского языка.

Ключевые слова: японский язык, AI-чатбот, генеративный искусственный интеллект, занятие начального уровня, самостоятельное обучение, лексика, грамматика, интерактивное обучение, академическая честность.

Abstract. This article analyzes the didactic potential and practical effectiveness of using AI chatbots in beginner-level Japanese language classes at university from a scientific and methodological perspective. In recent years, generative artificial intelligence technologies have been increasingly integrated into education, particularly into the process of language teaching. Although the number of studies on the use of ChatGPT and other AI tools in teaching Japanese language instruction as a foreign language remains relatively limited. Therefore, this article examines the role of AI chatbots in beginner Japanese language education, their impact on students' independent learning, and their supporting functions in the acquisition of language. The findings indicate that chatbots can serve as useful tools for vocabulary learning, understanding Japanese grammar, reinforcing hiragana and katakana writing systems. The article substantiates the need to integrate AI chatbots into Japanese language teaching in a purposeful, controlled manner and in accordance with the principles of academic integrity.

Keywords: Japanese language, AI chatbot, generative artificial intelligence, beginner-level class, independent learning, vocabulary, grammar, interactive learning, academic integrity.

Kirish. So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida yangi metodik imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. ChatGPT, Talkio AI, LanguaTalk, SpeakPal, Pingo AI, Sakura Speak, Yomeru, Fujiyama.chat kabi AI-chatbot va AI tutor platformalari til o‘rganish jarayonida interaktiv suhbat, tezkor feedback, tarjima, grammatik izoh, talaffuzni mashq qilish, so‘z boyligini kengaytirish hamda madaniy axborotlarni izlash kabi vazifalarni bajarishga xizmat qilmoqda.

Til ta’limida AI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha dastlabki ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosan ingliz tilini o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lib, keyingi yillarda xitoy tili ta’limida ham ayrim tajribalar e‘lon qilinmoqda. Biroq yapon tilini o‘qitish jarayonida AI-chatbotlardan foydalanish tajribasi hali keng qamrovli o‘rganilmagan.[2, 4] Ayniqsa boshlang‘ich darajadagi yapon tili darslarida bunday



vositalarning qanday o'quv mazmunida qo'llanishi, talabalar ularni qanday qabul qilishi, qaysi til ko'nikmalarini rivojlantirishda samaraliroq ekani va qanday metodik cheklovlarga ega ekani alohida tadqiqotni talab qiladi.

Yapon tilini o'rganish jarayoni bir qator murakkabliklarga ega. Birinchidan, talaba hiragana, katakana va kanji kabi yozuv tizimlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishi kerak. Ikkinchidan, yapon tili grammatikasi o'zbek, rus yoki ingliz tillaridan farqli sintaktik tuzilishga ega. Uchinchidan, yapon tilidagi muloqotda kontekst, ijtimoiy masofa, hurmat shakllari, bilvosita ifoda va madaniy me'yorlar muhim o'rin tutadi. Shu sababli talaba auditoriya darslaridan tashqari mustaqil mashq qilish, so'zlarni ko'p marta takrorlash, grammatika bo'yicha izoh olish, tarjima variantlarini solishtirish va madaniy kontekstni tushunishga ehtiyoj sezadi.

AI-chatbotlar aynan shu ehtiyojlarni qisman qondira oladigan raqamli vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular talaba bilan interaktiv muloqotga kirishadi, savolga darhol javob beradi, tushunmagan joyini qayta izohlaydi, turli tillarda yordam ko'rsatadi va individual ehtiyojga moslashishga harakat qiladi. Biroq ushbu imkoniyatlarni metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirmasdan turib, AI-chatbotlardan samarali natija kutish qiyin. Chunki chatbot javoblari har doim ham to'liq aniq, madaniy jihatdan mos yoki o'quv dasturiga uyg'un bo'lmasligi mumkin.

Shu nuqtai nazardan ushbu maqolaning maqsadi boshlang'ich yapon tili darsida AI-chatbotlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash, talabalar tajribasi asosida ularning foydali va muammoli jihatlarini tahlil qilish hamda yapon tili ta'limiga AI vositalarini integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot sifat yondashuviga asoslangan. Asosiy e'tibor AI-chatbotlarning boshlang'ich yapon tili darsidagi amaliy qo'llanilishi, talabalarining ulardan foydalanish tajribasi va o'quv jarayonidagi didaktik qiymatini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot obyekti sifatida universitetning boshlang'ich darajadagi yapon tili darsida tahsil olayotgan 40 nafar talabaning chatbotlardan foydalanish tajribasi tanlandi. (2,4) Talabalar semestr davomida chatbotlardan mustaqil ta'lim jarayonida foydalanib bordilar. Ularning faoliyati har oy mini-hisobot shaklida kuzatildi. Mini-hisobotlarda talabalar chatbotdan qaysi maqsadda foydalangani, qanday savollar bergani, qaysi funksiyalar foydali bo'lgani, qanday qiyinchiliklarga duch kelgani va umumiy taassurotlari haqida ma'lumot berdilar.

Tadqiqotda akademik halollik tamoyiliga alohida e'tibor qaratildi. Talabalarining chatbotdan foydalanish tajribasi baholanganda AI tomonidan yaratilgan javoblarni bevosita o'quv natijasi sifatida emas, balki talabaning mustaqil



o'rganish jarayonida foydalangan yordamchi resursi sifatida talqin qilishga harakat qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar AI-chatbotlardan bir xil maqsadda emas, balki turli o'quv ehtiyojlariga ko'ra foydalanganlar. Ularning mini-hisobotlari asosida chatbotlardan foydalanishning beshta asosiy yo'nalishi aniqlandi: lug'at o'rganish, grammatika, yozuv tizimi, tarjima va madaniyatni o'rganish. Lug'at o'rganishda AI-chatbotlardan foydalanilganda, talabalar chatbotlardan eng ko'p foydalangan yo'nalishlardan biri yapon tili lug'atini o'rganish bo'ldi. Boshlang'ich bosqichda o'rganuvchilar yangi so'zlarni ma'nosi, o'qilishi, talaffuzi va gapdagi qo'llanilishi bilan birga o'zlashtirishga ehtiyoj sezadilar. Chatbotlar bunday vaziyatda oddiy lug'atdan farqli ravishda so'zning kontekstdagi ishlatilishini tushuntirib bera oladi. Masalan, talaba bitta yaponcha so'zning o'zbekcha, inglizcha yoki ruscha ma'nosini so'rashi, uning romaji shaklini aniqlashi, shu so'z qatnashgan sodda gaplarni tuzdirishi yoki so'zning rasmiy va norasmiy nutqdagi qo'llanish farqini bilib olishi mumkin. Bu jarayon talabaning passiv lug'at boyligini faol lug'atga aylantirishga yordam beradi. Leksik o'rganishda Fujiyama.chat kabi maxsus AI lug'atli vositalari ham alohida ahamiyatga ega. Bunday platformalar so'zning o'qilishi, ma'nosi, misol gaplari, TTS talaffuzi va takrorlash mashqlarini birlashtirgani uchun talabaga mustaqil ravishda lug'at bilan tizimli ishlash imkonini beradi.

Shuningdek, yapon tili grammatikasini tushunish va mustahkamlash, talabalarining chatbotdan faol foydalangan yana bir yo'nalishi yapon tili grammatikasini tushunish bilan bog'liq bo'ldi. Boshlang'ich darajada talabalar gap tartibi, yordamchi birliklar, fe'l shakllari, sifatlarning o'zgarishi, savol va inkor shakllarini o'zlashtirishda ko'p savollar beradi. Chatbotning afzalligi shundaki, u grammatik qoidani bir necha tilda tushuntira oladi, misollar keltiradi, noto'g'ri gapni tuzatadi va kerak bo'lsa, izohni soddalashtiradi. Masalan, talaba “は” va “が” farqini, “です/ます” uslubini, “て-form” yoki “ない-form” shakllarini so'rashi mumkin. Chatbot bu qoidalarni qisqa izoh, misol gap va tarjima orqali tushuntiradi. Biroq tadqiqot natijalarida ayrim talabalar chatbot izohlari ba'zan murakkab yoki tushunish qiyin bo'lganini qayd etganlar. Bu holat boshlang'ich darajadagi talabalar uchun AI javoblarini o'qituvchi tomonidan moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Chatbot grammatikani tushuntirishi mumkin, ammo izohning talaba darajasiga mosligi har doim ham kafolatlanmaydi.

Talabalar chatbotlardan hiragana va katakana yozuvlarini o'rganish hamda mustahkamlashda ham foydalanganlar. Boshlang'ich yapon tili darsida yozuv tizimlarini o'zlashtirish asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Hiragana yaponcha



soʻzlar va grammatik birliklarni yozishda, katakana esa asosan chet tilidan kirgan soʻzlar, xorijiy nomlar va ayrim urgʻuli ifodalarni yozishda ishlatiladi. Chatbotlar bu jarayonda harflarni eslab qolish, ularning romaji shaklini aniqlash, misol soʻzlar berish va yozuv tizimlari oʻrtasidagi farqni tushuntirishda yordam beradi. Masalan, talaba “ka”, “shi”, “tsu”, “n” kabi boʻgʻinlarning hiragana va katakana shakllarini soʻrashi yoki berilgan soʻzni hiragana, katakana va romaji shaklida yozdirishi mumkin. Bu jihat chatbotlarning boshlangʻich bosqichdagi texnik yordamchi sifatidagi ahamiyatini koʻrsatadi. Biroq yozuvni qoʻl bilan mashq qilish, grafik shaklni toʻgʻri yozish va tartib bilan yozish kabi masalalarda chatbot imkoniyatlari yetarli emas. Bu jarayonda maxsus yozuv ilovalari, oʻqituvchi koʻrsatmasi va vizual mashqlar bilan integratsiya zarur.

Muhokama. Tadqiqot natijalari AI-chatbotlarning boshlangʻich yapon tili darsida bir necha muhim didaktik vazifani bajara olishini koʻrsatdi. Birinchidan, ular talabaning mustaqil savol berish faolligini oshiradi. Anʼanaviy dars jarayonida ayrim talabalar oʻqituvchiga savol berishga tortinishi mumkin. Chatbot bilan ishlashda esa talaba xohlagan savolini takroran berishi, tushunmagan joyini qayta soʻrashi va xato qilishdan kamroq qoʻrqishi mumkin. Ikkinchidan, chatbotlar individual ehtiyojga mos yordam koʻrsatadi. Har bir talaba yapon tilini oʻrganishda turli qiyinchilikka duch keladi. Kimdir hiraganani tez oʻzlashtiradi, lekin grammatikada qiynaladi; boshqasi soʻzlarni biladi, ammo gap tuzishda xato qiladi; yana biri Yaponiya madaniyati bilan bogʻliq savollar orqali tilga qiziqadi. Chatbotlar shu xilma-xil ehtiyojlarga mos javob bera olishi bilan anʼanaviy bir xil topshiriqlardan farq qiladi.

Uchinchidan, chatbotlar talabaning taʼlimga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi. Talabalar fikriga koʻra, chatbotning interaktiv yondashuvi ularga yoqqan, undan foydalanish oʻquv jarayonini qiziqarli qilgan. Bu jihat ayniqsa boshlangʻich bosqichda muhim, chunki til oʻrganishga dastlabki motivatsiya keyingi bosqichlarda barqaror oʻquv odatini shakllantirishga taʼsir qiladi. Toʻrtinchidan, chatbotlar til va madaniyatni birgalikda oʻrganish imkonini beradi. Yapon tilida grammatik birliklar koʻpincha madaniy muloqot meʼyorlari bilan bogʻliq. Masalan, hurmat shakllari, murojaat usullari, kechirim va minnatdorchilik ifodalari faqat til qoidasi emas, balki madaniy xatti-harakat ifodasidir. Chatbotlar bu mavzular boʻyicha dastlabki tushuncha berishi mumkin.

Biroq olingan natijalar AI-chatbotlardan foydalanishning ayrim cheklovlarini ham koʻrsatdi. Talabalar baʼzan chatbot izohlarini murakkab, tushunish qiyin yoki yetarli darajada aniq emas deb baholaganlar. Bu holat shuni koʻrsatadiki, AI vositasi boshlangʻich darajadagi talaba uchun har doim ham pedagogik jihatdan moslashtirilgan javob bera olmaydi. Shu sababli oʻqituvchi chatbotdan foydalanish



bo'yicha aniq topshiriq, namuna savollar, tekshirish mezonlari va refleksiya shakllarini ishlab chiqishi kerak.

Maqolada ko'rib chiqilgan Talkio AI, LanguaTalk, SpeakPal, Pingo AI va Sakura Speak kabi platformalar asosan og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qilsa, Yomeru va Fujiyama.chat kabi vositalar reading, kanji va vocabulary yo'nalishida foydaliroqdir. Demak, yapon tili o'qituvchisi AI vositasini umumiy "chatbot" sifatida emas, balki aniq didaktik vazifaga mos ravishda tanlashi kerak. Masalan, speaking uchun Talkio AI yoki Sakura Speak, lug'at va misol gaplar uchun Fujiyama.chat, o'qib tushunish uchun Yomeru, umumiy suhbat va feedback uchun LanguaTalk yoki SpeakPal kabi vositalar tanlanishi mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot boshlang'ich yapon tili darsida AI-chatbotlardan foydalanishning ta'limiy jihatdan foydali ekanini ko'rsatdi. 60 nafar talabaning semestr davomida mini-hisobotlar asosida kuzatilgan tajribasi chatbotlarning lug'at o'rganish, grammatika izohlash, hiragana va katakana yozuvlarini mustahkamlash, tarjima qilish hamda Yaponiya madaniyatiga oid ma'lumotlarni izlashda faol qo'llanishini namoyon etdi. Talabalarning fikr-mulohazalari chatbotlarning interaktiv yondashuvi, istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati, tezkor javob berishi va ko'p tilli yordam ko'rsata olishini ijobiy baholaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda izohlarning murakkabligi, javoblarning aniqligi bo'yicha shubhalar va AI vositasiga haddan tashqari tayanish xavfi mavjudligi aniqlandi.

Maqolaning asosiy ilmiy-amaliy xulosasi shundan iboratki, AI-chatbotlar yapon tili o'qituvchisini almashtiruvchi vosita emas, balki talabalar mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlovchi, individual ehtiyojlarga moslashuvchi, interaktiv va ko'p tilli raqamli yordamchi sifatida samarali bo'lishi mumkin. Ularning haqiqiy didaktik qiymati o'qituvchi tomonidan metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda, akademik halollik qoidalari bilan tartibga solinganda va talabaning refleksiv faoliyati bilan birlashtirilganda yuzaga chiqadi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda tajriba-sinov tadqiqotlarini kengaytirish, chatbotlardan foydalangan va foydalanmagan talabalar natijalarini pre-test va post-test asosida qiyoslash, shuningdek, AI-chatbotlarning yapon tilidagi speaking, grammar, kanji va madaniy-pragmatik kompetensiyaga ta'sirini alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment — Companion volume. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.



2. Du J., Daniel B.K. Transforming language education: A systematic review of AI-powered chatbots for foreign language speaking practice // Computers and Education: Artificial Intelligence. — 2024. — Vol. 6. — Article 100230.
3. Godwin-Jones R. Emerging spaces for language learning: AI, conversation, and learner autonomy // Language Learning & Technology. — 2023. — Vol. 27. — No. 2. — P. 6–27.
4. Jeon J., Lee S., Choe H. Beyond ChatGPT: A conceptual framework and systematic review of speech-recognition chatbots for language learning // Computers & Education. — 2023. — Vol. 206. — Article 104898.
5. Kohnke L., Moorhouse B.L., Zou D. ChatGPT for language teaching and learning // RELC Journal. — 2023. — Vol. 54. — No. 2. — P. 537–550.
6. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41. — No. 2. — P. 64–70.
7. Fujiyama.chat. AI Japanese Vocabulary Learning Platform [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://www.fujiyama.chat/> — Murojaat sanasi: 18.06.2026.
8. LanguaTalk. Langua: AI Language Coach [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://languatalk.com/> — Murojaat sanasi: 18.06.2026.
9. Pingo AI. AI Speaking Companion for Language Learning [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://pingo.ai/> — Murojaat sanasi: 18.06.2026.
10. Sakura Speak. AI Japanese Speaking Practice Application [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://sakuraspeak.app/> — Murojaat sanasi: 18.06.2026.
11. SpeakPal. AI Language Learning Tutor [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://www.speakpal.ai/> — Murojaat sanasi: 18.06.2026.
12. Talkio AI. AI Language Tutor for Speaking Practice [Elektron resurs]. — 2026. — URL: <https://www.talkio.ai/> — Murojaat sanasi: 18.06.2026.